

O'ZBEK ADABIYOTIDA AYOL OBRAZI EVOLYUTSIYASI

Xaqqulova Dilshoda Abduvasiyevna¹

Osiyo Xalqaro Universiteti o'qituvchisi

To'xtapo'latova Mashhura Najmiddin qizi²

Osiyo Xalqaro Universiteti I kurs magistranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotida ayol obrazining tarixiy rivoji tahlil qilinadi. Turli davrlardagi badiiy asarlarda ayolning ijtimoiy mavqei, xarakteri va badiiy talqini o'zgarishi ko'rsatib beriladi. Tezisdan taqqoslash va tahlil metodlari qo'llanib, qadimgi davrdagi idealizatsiyalangan ayol qiyofasi zamonaviy adabiyotda mustaqil, ruhiy jihatdan yetuk shaxs sifatida aks etishi yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

***Kalit so'zlar:** ayol obrazi, badiiy tasvir, jadid adabiyoti, psixologizm, evolyutsiya, obraz tahlili.*

Ayol obrazi o'zbek adabiyotining muhim mavzularidan biri bo'lib, har bir davrda jamiyatdagi qadriyatlar, ijtimoiy rol va shaxsiy xususiyatlar bilan bog'liq tarzda talqin qilinadi. Qadimgi epik asarlardan boshlab jadid adabiyoti, sovet davri, mustaqillik davri va zamonaviy adabiyotgacha ayol obrazining evolyutsiyasi kuzatiladi. Ushbu maqolada aynan shu o'zgarishlar bosqichma-bosqich tahlil qilinadi.

1. Qadimgi va og'zaki adabiyotda ayol obrazi

Qadimgi epik va og'zaki adabiyotda ayol odatda sadoqatli, matonatli va vafodor sifatlarda tasvirlangan. Masalan, "Alpomish" dostonidagi Barchinoy obrazi jasur va sadoqatli ayol sifatida gavdalanadi. Shu davr og'zaki ijodida ayol ko'proq oilani asrovchi, oilaviy qadriyatlarni himoya qiluvchi sifatida talqin qilinadi. Bu davr adabiyotida ayolning jamiyatdagi mavqei cheklangan, asosan uy va oila bilan bog'liq bo'lgan.

2. Jadid adabiyotida ayol obrazining uyg'onishi

XX asr boshlarida jadid adabiyotida ayol obraziga yangicha yondashuv paydo bo'ladi. Ayol: ma'rifatga intiluvchi, jamiyatda o'z o'rnini topishga intiluvchi, o'z fikr va qaroriga ega shaxs sifatida ko'rsatiladi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi Zebi va Ra'no, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" idagi Kumush ayol obrazlari bunga yorqin misoldir. Jadid davrida ayol endi shunchaki sodiq xotin yoki ona emas, balki mustaqil shaxs sifatida tasvirlana boshlaydi.

3. Sovet davri adabiyotida ayol obrazi

Sovet davrida ayol ko'pincha mehnatkash, faol va jamiyat quruvchisi sifatida idealizatsiya qilinadi. Zulfiya va Saida Zunnunova she'riyatida ayol mehnat frontida, maktabda, kasbida faol bo'lgan, jamiyatga foyda keltiruvchi shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu davr adabiyotida ayol obrazining psixologik jihatlari kamroq yoritilgan, asosiy e'tibor uning jamiyatdagi faol rolga qaratilgan.

4. Mustaqillik davri adabiyotida ayolning ruhiy olami

Mustaqillik davrida ayol obrazi yanada psixologik jihatdan murakkab bo'lib, uning ichki kechinmalari, qarorlari, hayotiy tajribalari chuqurroq o'rganila boshlaydi. O'tkir Hoshimovning "Daftar hoshiyasidagi bitiklar" asarida ona obrazi ayolning mehrini, sabr-toqatini va hayotiy donoligini ifodalaydi. Erkin A'zam hikoyalarda ayolning ruhiy holati, kechinmalari va shaxsiy qarorlari asosiy mavzu sifatida ko'rsatiladi.

5. Zamonaviy adabiyotda ayol – mustaqil shaxs sifatida

Hozirgi adabiyotda ayol mustaqil, o'z hayotini boshqaruvchi, qarorlar qabul qiluvchi shaxs sifatida gavdalanadi. Zamonaviy yozuvchilar ayolni murakkab psixologik kechinmalar, shaxsiy rivojlanish, jamiyat bosimi va sevgi munosabatlari orqali tasvirlaydi. Yosh ijodkorlarning asarlarida ayol qahramonlar o'z hayotini erkin tashkil qiluvchi va zamonaviy muammolarga duch keluvchi shaxs sifatida ko'rsatiladi.

Umuman olganda, o'zbek adabiyotida ayol obrazi qadimgi sodiq ayoldan boshlab zamonaviy mustaqil shaxsga qadar evolyutsiya qilgan. Qadimgi davrda ayol oilaga bog'liq bo'lsa, jadid davrida u ma'rifatga intiluvchi shaxsga aylangan. Sovet davrida jamiyat quruvchisi sifatida idealizatsiya qilingan, mustaqillik

davrida psixologik jihatdan chuqurroq ochilgan. Hozirgi davr adabiyotida esa ayol mustaqil, erkin va hayotiy real shaxs sifatida tasvirlanadi. Bu o'zgarishlar o'zbek jamiyatidagi ayol mavqeining oshishini va adabiyotdagi badiiy tasvirning rivojlanishini aks ettiradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qodiriy, O'tkan kunlar, Toshkent, 1991.
2. Cho'lpon, Kecha va kunduz, Toshkent, 2000.
3. Oybek, Navoiy, Toshkent, 1985.
4. Erkin A'zam, Tanlangan hikoyalar, Toshkent, 2010.
5. O'tkir Hoshimov, Daftar hoshiyasidagi bitiklar, Toshkent, 2005.
6. Zulfiya, She'rlar to'plami, Toshkent, 1990.